

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI,
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

DAVRONOV JAVLON RUSTAM O‘G‘LI

**YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL OPERATORLARNING
FUNDAMENTAL YECHIMIGA ANIQ BO‘LGAN TAQRIBIY
INTEGRALLASHNING OPTIMAL ALGORITMLARI**

**01.01.03 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-
mathematical sciences**

Davronov Javlon Rustam o'g'li

Yuqori tartibli differensial operatorlarning fundamental yechimiga aniq bo'lgan
taqribiy integrallashning optimal algoritmlari 3

Давронов Жавлон Рустам угли

Оптимальные алгоритмы приближенного интегрирования точных на
фундаментальных решений дифференциального оператора высокого порядка
..... 19

Davronov Javlon Rustam ugli

Optimal algorithms for approximate integration of exact fundamental solutions of
the high-order differential operator 37

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 40

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

**V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI,
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

DAVRONOV JAVLON RUSTAM O‘G‘LI

**YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL OPERATORLARNING
FUNDAMENTAL YECHIMIGA ANIQ BO‘LGAN TAQRIBIY
INTEGRALLASHNING OPTIMAL ALGORITMLARI**

**01.01.03 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/FM1232 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida va Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<http://ik-fizmat.nuu.uz/>) va «Ziyonet» ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Shadimetov Xolmatvay Maxkambayevich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Hayotov Abdullo Raxmonovich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xudoyberganov Mirzoali O'razaliyevich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning «___»_____ 2025 yil soat___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil «___» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.M. Aripov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

Z.R. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., professor

R.D. Aloyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tobora ko‘proq murakkab matematik modellar va raqamli hisoblash usullariga asoslanmoqda. Xususan, geofizik hodisalarni modellashtirish, optik qurilmalar asosidagi jarayonlarni tahlil qilish elektr, magnit yoki issiqlik maydonlarini simulyatsiya qilish, yorug‘lik to‘lqinlarining taqsimotini aniqlash, iqtisodiy prognozlar tuzish kabi jarayonlar matematik-fizik tenglamalariga asoslanadi. Ko‘pincha, bu kabi tenglamalarning aniq yechimini topish murakkabligi sababli, ularni taqribiy yechish uchun kvadratur formulalar qurishga olib kelinadi. Shu jihatdan, yuqori tartibli differensial operatorlarning fundamental yechimiga aniq bo‘lgan taqribiy integrallashning optimal algoritmlarini tadqiq etish, Gilbert fazosida optimal kvadratur formulalar qurish, ularning xatoliklarini baholash va yaqinlashish tartibini aniqlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda matematik modellashtirish va sonli hisoblash sohasidagi yuqori aniqlikka ega bo‘lgan kvadratur formulalarni qurish hamda ularning xossalarni tadqiq qilish kabi yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, qurilgan optimal kvadratur formulalar chegaraviy shartlarga ega bo‘lgan xususiy hosilali differensial tenglamalarni, integral tenglamalarni sonli-analitik yechishga, aniq integrallarni taqribiy hisoblashga, hamda funksiyalarning turli funksional fazolarida yaqinlashtirish kabi muhim masalalariga keng qo‘llaniladi. Shu sababli, yuqori tartibli differensial operatorlarning fundamental yechimlariga aniq bo‘lgan optimal kvadratur formulalar qurish hamda ularning xatoliklarini baholash va yaqinlashish tartibini aniqlashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda fundamental fanlarning nazariy asoslarini tadqiq qilish va ularni hayotiy muhim sohalarda tadbiq qilinishi yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Xususan, sanoat jarayonlarini modellashtirish, geofizik hodisalarni tahlil qilishda qo‘llaniladigan sonli-analitik yechim usullarini ishlab chiqish bugungi kundagi eng muhim yo‘nalishlardan hisoblanadi. Shu kabi masalalar integral va differensial tenglamalarga tayangan holda ularni samarali yechish uchun zamonaviy optimal formulalar qurishga ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, hisoblash matematikasining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida turli funksional fazolarda optimal kvadratur formulalarni qurish hamda ularning aniqlik darajasini oshirish bo‘yicha bir qator muhim ilmiy natijalarga erishildi. “Funksional analiz, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika”¹ kabi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan yuqori tartibli differensial operatorning fundamental yechimiga aniq bo‘lgan optimal kvadratur formulalar qurish va ularning xatoliklarini baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy- tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4708-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvar PF-60 sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevral PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-aprel PQ-2909-sonli “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 27-aprel PQ-3682-sonli “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 7-may PQ-4708-sonli “Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ko‘plab amaliy masalalar xususan, raqamli signalni qayta ishlash, ma‘lumotlar tahlili, biologik va texnologik tarmoqlar bilan bog‘liq masalalarning yechimi xususiy hosilali differensial tenglamalar yoki integral tenglamalar orqali ifodalanadi. Odatda bunday tenglamalarni sonli analitik yechish aniq integrallarni taqribiy hisoblashga olib kelinadi. Aniq integrallarni taqribiy hisoblash vositalaridan biri bu kvadratur formulalardir. Kvadratur formulalar algebraik, ehtimoliy-statistik, sonli-nazariy hamda funksional yondashuvlar asosida quriladi. Algebraik yondashuv asosida kvadratur formulalar qurish bilan V.I. Krilov, I.P. Misovskix, V.I. Lebedev, A. Sard, S. Maqsudov, A.X. Stroud, M.I. Levin, A.K. Ponomarenko, S.I. Konyayev, R. Cools, Y.G. Shi, M. Miodrag, S.B. Stoyanova kabi olimlar shug‘ullanishgan. Ehtimoliy-statistik yondashuvi Monte-Karlo metodiga asoslangan bo‘lib, ushbu yondashuv bilan N.S. Baxvalov, S.M. Ermakov, I.M. Sobol, G.A. Mixaylov, A.S. Rasulov, E. Novak va H. Wozniakovski, R.V. Xemming, A.I. Zadorin, Sh. Zang kabi olimlar shug‘ullanishgan. Sonli-nazariy yondashuv asosida kvadratur formulalar qurish G‘. Ismatullayev, M.I. Isroilov, N.N. Chensova, Ya.M. Jileykin, I.F. Shargin, V.I. Solodova ishlarida keltirilgan.

Aniq integrallarni taqribiy hisoblashda funksional analizga va differensial tenglamalar nazariyasiga asoslangan metodlaridan biri bu funksional yondashuvdir. Ushbu yondashuv asosida kvadratur va kubatur formulalar qurish S.M. Nikolskiy va S.L. Sobolev ishlarida batafsil ma‘lumotlar keltirilgan. Odatda funksional yondashuvda taqribiy integrallash uchun formulalarni optimallashtirish masalasi – bu berilgan funksiyalar fazosida xatolik funksionali normasining minimumini topishdan iborat. Xatolik funksionali normasi koeffitsiyentlar va tugun nuqtalar orqali minimum topiladi. Agarda biz har ikkisi bo‘yicha minimumini

topmoqchi bo'lsak, bunday turdagi masala Nikolskiy masalasi bo'lib, hosil qilingan formulaga eng yaxshi kvadratur formulalar deb ataymiz. Bu boradagi ilmiy izlanishlar S.M. Nikolskiy, N.P. Korneychuk, A.A. Jensikbayev, T.A. Shaydayeva, N.E. Lushpay, V.P. Motorniy kabi olimlarning ishlarida keltirilgan.

Tugun nuqtalar fiksirlanganda faqat koeffitsiyentlar bo'yicha minimumini topish masalasi Sard masalasi hisoblanib, hosil qilingan formulalar Sard ma'nosida optimal kvadratur formulalar deb ataladi. Ushbu ko'rinishdagi formulalar splaynlar, φ – funksiyalar hamda Sobolev metodlari asosida qurish mumkin. Turli fazolarda splayn funksiyalar metodi yordamida A. Sard, I. Schoenberg, L. Meyers, G. Koman, I. Catinas, S. Silliman, P. Kohler, A. Malyukov, I. Orlov kabi yetuk olimlar optimal kvadratur formulalar qurishgan. D. Ionescu, P. Blaga, A. Ghizzetti, G. Koman, A. Ossicini hamda F. Lanzara larning ishlarida φ – funksiyalar metodi yordamida Sobolevning $L_2^{(m)}$ fazosida optimal kvadratur formulalar qurilgan. Bugungi kunda zamonaviy usullardan biri hisoblangan Sobolev metodi asosida ham optimal kvadratur formulalar quriladi. Buning afzallik tomoni shundagi, ushbu usul yordamida kvadratur formulalar optimal koeffitsiyentlarining analitik ko'rinishlari olinadi. Undan tashqari qaralayotgan funksional fazolarda kvadratur formulalar xatoligining eng yuqori bahosi topiladi hamda yaqinlashish tartibi ham ko'rsatiladi. Shuni ta'klash joizki, ma'lum bir Gilbert va Banax fazolarida optimal kvadratur formulalar qurish S. Sobolev, Z. Jamalov, G'. Salixov, X. Shadimetov, A. Hayotov, F. Nuraliyev, S. A'zamov, D. Axmedov, A. Boltayev va boshqalarning ishlarida keltirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Hisoblash matematikasi laboratoriyasining "Gilbert fazolarida optimal kvadratur, interpolyatsion, ayirmali formulalar qurish va ularni integral tenglamalarni yechishga tatbiqlari" mavzusidagi kalendar reja doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yuqori tartibli differensial operatorlarning fundamental yechimiga aniq bo'lgan taqribiy integrallashning optimal algoritmlarini qurish, ularga mos xatolik funksionali normasini hisoblash hamda integral tenglamalarni sonli yechishda optimal kvadratur formulalarni qo'llashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Sobolevning $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida kvadratur formulaning ekstremal funksiyasi hamda xatolik funksionali normasining ko'rinishlarini topish;

Sobolevning $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida normaga minimum qiymat beruvchi koeffitsiyentlar uchun Vinner-Xopf tipidagi tenglamalar sistemasini olish;

m – juft bo'lganda $\left(\frac{d^{2m}}{dx^{2m}} + 1 \right)$ differensial operatorning $D_m[\beta]$ diskret

analogini qurish;

Sobolevning $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida optimal kvadratur formulalar koeffitsiyentlarini topish;

Sobolevning $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida qurilgan optimal kvadratur formulalar xatoliklarining yaqinlashish tartibini baholash;

Tadqiqotning obykti. Gilbert fazosi, fundamental yechim, ekstremal funksiya, differensial operatorning diskret analogi, optimal kvadratur formulalar, xatolik funkcionallaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti. Fundamental yechim, ekstremal funksiya, fundamental yechimga aniq bo'lgan optimal kvadratur formulalar, $\left(\frac{d^{2m}}{dx^{2m}} + 1\right)$ differensial operatorning diskret analogi, $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosidagi funktsiyalardan iborat.

Tadqiqot usullari. Ilmiy tadqiqot ishida hisoblash matematikasi, funktsional analiz, ko'p o'zgaruvchili funktsiyalar nazariyasi, umumlashgan funktsiyalar, qoldiqlar nazaryasi hamda diskret argumentli funktsiyalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sobolevning $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida yuqori tartibli differensial operatorlarning fundamental yechimlariga aniq bo'lgan kvadratur formulaning ekstremal funktsiyasi yordamida xatolik funktsionali normasining ko'rinishi topilgan;

Sobolevning $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida normaga minimum qiymat beruvchi koeffitsiyentlar bo'yicha xususiy hosilalarini nolga tenglashtirib Vinner-Xopf tipidagi tenglamalar sistemasi olingan;

Sobolevning $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida Furrye almashtirishlari yordamida m – juft bo'lganda $\left(\frac{d^{2m}}{dx^{2m}} + 1\right)$ differensial operatorning $D_m[\beta]$ diskret analogi qurilgan;

Sobolevning $L_2^{(1,0)}(0,1)$ va $L_2^{(2,0)}(0,1)$ fazolarida diskret operatorlar yordamida kvadratur formulalar optimal koeffitsiyentlarning ko'rinishlari topilgan;

Sobolevning $L_2^{(1,0)}(0,1)$ va $L_2^{(2,0)}(0,1)$ fazolarida optimal koeffitsiyentlaridan foydalanib kvadratur formula xatoligining yaqinlashish tartibi baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qurilgan optimal kvadratur formula ikki o'lchovli ishonchlilik funktsiyasi va uning qorishmasi uchun qurilgan Arximed kopula baholarini olishda qo'llanilgan;

dissertatsiya natijalari gaz tarmoqlarini simulyatsiya qilishning samarali modellari uchun integral munosabatlarni taqribiy yechishda qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kvadratur formulalar nazaryasi, hisoblash matematikasi, funktsional analiz, diskret argumentli funktsiyalar va umumlashgan funktsiyalar nazaryalari metodlarini qo'llanilganligi, hamda matematik mulohazalarning qat'iyiligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati Sobolevning $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida aniq integrallarni yetarli aniqlikda taqribiy hisoblash uchun optimal kvadratur formulalar qurilganligi va ularning xatoligi yuqoridan baholanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati optimal kvadratur formulalar aniq integrallarni sonli taqribiy hisoblash usullari yordamida ikki o‘lchovli ishonchlilik funksiyasi va uning qorishmasi uchun qurilgan Arximed kopula baholarining tekis asosligining natijalarini isbotlashda qo‘llanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sobolevning $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida yuqori tartibli differensial operatorlarning fundamental yechimiga aniq bo‘lgan taqribiy integrallashning optimal algoritmlarini qurish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Gilbert fazosida integrallarni taqribiy hisoblash uchun qurilgan optimal kvadratur formula 2022-2023 yillarda Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan IL-5321091543 “Gaz tarmoqlarining topologik modelini yaratish va simulyatsiya qilish” mavzusidagi innovatsion loyihani bajarishda, ya’ni loyihada gaz tarmoqlarining topologik modelini yaratishda va simulyatsiya qilishda foydalanilgan. (Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, 2025-yil 22-apreldagi 1561/05-2 – sonli ma’lumotnomasi). Natijada gaz tarmoqlarini simulyatsiya qilishning samarali modellari uchun integral munosabatlarni taqribiy yechish imkonini bergan;

$L_2^{(2,0)}(0,1)$ fazosida qurilgan optimal kvadratur formula UZB-Ind-2021-97 raqamli “Applied statistical problems for dependent incomplete multidimensional data” mavzusidagi amaliy loyihasida ikki o‘lchovli ishonchlilik funksiyasi va uning qorishmasi uchun qurilgan Arximed kopula baholarini olishda qo‘llanilgan. (M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat Universiteti Toshkent filiali, 2025 yil 24 apreldagi 01-01-70-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ikki o‘lchovli ishonchlilik funksiyasi va uning qorishmasi uchun qurilgan Arximed kopula baholarining tekis asosligining natijalarini isbotlash imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 8 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 2 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan, shuningdek elektron hisoblash mashinalari uchun dasturni rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi bitta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 91 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzu bo‘yicha dunyo miqyosidagi ilmiy-tadqiqotlar sharhi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Aniq integrallarni taqribiy hisoblash masalasi**” deb nomlangan birinchi bobning birinchi paragrafida integrallarni taqribiy hisoblashning algebraik va variatsion yondashuvlari haqida ma‘lumotlar bayon etilgan. Birinchi bobning ikkinchi paragrafida esa $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida optimal kvadratur formulalar qurish masalasi qo‘yilgan. Ya‘ni, quyidagi ko‘rinishdagi kvadratur formulani qaraymiz

$$\int_0^1 \varphi(x) dx \cong \sum_{\beta=0}^N C[\beta] \varphi[\beta], \quad (1)$$

bu yerda $[\beta] = h\beta$ tugun nuqtalar, $\beta = \overline{0, N}$, $h = \frac{1}{N}$, $N \in \mathbb{N}$, $C[\beta]$ lar (1)-formulaning koeffitsiyentlari. $\varphi(x)$ funksiyalar esa $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazoning elementlari. Ya‘ni ushbu fazo elementlari $\varphi(x)$ funksiyalar $(m-1)$ - tartibli hosilasigacha absolyut uzluksiz, m - tartibli umumlashgan hosilasi kvadrati bilan integrallanuvchi, haqiqiy qiymatli funksiyalar bo‘lsin. Bu funksiyalar to‘plami vektor fazoni tashkil qiladi hamda quyidagi skalyar ko‘paytmaga nisbatan Gilbert fazosi $L_2^{(m,0)}(0,1)$ ni hosil qiladi.

$$\langle \varphi, \psi \rangle_{L_2^{(m,0)}} = \int_0^1 \left(\varphi^{(m)}(x) \psi^{(m)}(x) + \varphi(x) \psi(x) \right) dx. \quad (2)$$

Ushbu skalyar ko‘paytmaga mos norma quyidagicha

$$\|\varphi\|_{L_2^{(m,0)}} = \left\{ \int_0^1 \left[\left(\varphi^{(m)}(x) \right)^2 + \varphi^2(x) \right] dx \right\}^{\frac{1}{2}}, \quad (3)$$

aniqlanadi. Yuqoridagi (1)-formuladagi integral va kvadratur yig‘indi orasidagi ayirmaga (1)-kvadratur formulaning *xatoligi* deyiladi va u quyidagicha

$$(\ell, \varphi) = \int_0^1 \varphi(x) dx - \sum_{\beta=0}^N C[\beta] \varphi[\beta],$$

bo‘ladi. Yuqoridagi xatolikga mos xatolik funksionali esa quyidagicha

$$\ell(x) = \varepsilon_{[0,1]}(x) - \sum_{\beta=0}^N C[\beta] \delta(x - h\beta), \quad (4)$$

bo‘ladi. Koshi-Shvars tengsizligiga ko‘ra quyidagi bahoga ega bo‘lamiz

$$|(\ell, \varphi)| \leq \|\ell\|_{L_2^{(m,0)*}} \|\varphi\|_{L_2^{(m,0)}}.$$

Demak, $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazoda (1)-kvadratur formulaning absolyut xatoligi $L_2^{(m,0)*}(0,1)$ qo'shma fazodagi ℓ xatolik funksionali normasi yordamida yuqoridan baholanadi. Bundan quyidagi masalaga ega bo'lamiz

1-masala. Ushbu (1)-kvadratur formulaning (4)-xatolik funksionali normasini ko'rinishini topish.

Yuqoridagi (4)-tenglikdan ko'rinib turibdiki xatolik funksionali normasi $C[\beta]$ koeffitsiyentlarga va $[\beta] = h\beta$ tugun nuqtalarga bog'liq. $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida optimal kvadratur formula qurishimiz uchun quyidagi masalani yechish kerak bo'ladi.

2-masala. Ushbu $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazoda quyidagi

$$\|\ell\|_{L_2^{(m,0)*}} = \inf_{C[\beta]} \|\ell\|_{L_2^{(m,0)*}},$$

tenglikni qanoatlantiruvchi $C[\beta]$ koeffitsiyentlarni topish.

Birinchi bobning uchinchi paragrafida biz (4)-xatolik funksionali normasini ko'rinishi topilgan va birinchi masala to'liq yechilgan. Xatolik funksionalining normasini hisoblash uchun quyidagi tenglikni qanoatlantiruvchi ψ_ℓ ekstremal funksiya tushunchasidan foydalanamiz

$$(\ell, \psi_\ell) = \|\ell\|_{L_2^{(m,0)*}} \|\psi_\ell\|_{L_2^{(m,0)}}. \quad (5)$$

Ushbu $L_2^{(m,0)}$ fazo Gilbert fazosi bo'lgani uchun chiziqli uzluksiz funksionalaning umumiy ko'rinishi haqidagi Riss teoremasidan $L_2^{(m,0)}$ fazosida quyidagi tenglikni qanoatlantiruvchi yagona ψ_ℓ funksiya mavjud

$$(\ell, \varphi) = \langle \psi_\ell, \varphi \rangle_{L_2^{(m,0)}}, \quad (6)$$

va $\|\ell\| = \|\psi_\ell\|$, bunda $\langle \psi_\ell, \varphi \rangle_{L_2^{(m,0)}}$ bu $L_2^{(m,0)}$ fazosidagi ψ_ℓ va φ funksiyalarning skalyar ko'paytmasi. Endi biz (6)-tenglamani yechish bilan shug'ullanamiz. Bu (6)-tenglamaning o'ng tomonini bo'laklab integrallash orqali quyidagiga ega bo'lamiz

$$\begin{aligned} \langle \varphi, \psi_\ell \rangle_{L_2^{(m,0)}} &= \int_0^1 \left(\varphi^{(m)}(x) \psi_\ell^{(m)}(x) + \varphi(x) \psi_\ell(x) \right) dx = \\ &= \sum_{k=1}^m (-1)^{k+1} \psi_\ell^{(m+k-1)}(x) \varphi^{(m-k)}(x) \Big|_0^1 + \int_0^1 \left((-1)^m \psi_\ell^{(2m)}(x) + \psi_\ell(x) \right) \varphi(x) dx. \quad (7) \end{aligned}$$

Ushbu (7)-tenglikdan ko'rinib turibdiki m sonining toq yoki juft ekanligiga qarab, (7)- tenglik ikki xil ko'rinishga ega bo'ladi:

m – toq holatida

$$(\ell, \varphi) = - \int_0^1 \left(\psi_\ell^{(2m)}(x) - \psi_\ell(x) \right) \varphi(x) dx + \sum_{k=1}^m (-1)^{k+1} \psi_\ell^{(m+k-1)(m+k-1)}(x) \varphi^{(m-k)}(x) \Big|_0^1, \quad (8)$$

m – juft holatida

$$(\ell, \varphi) = \int_0^1 (\psi_\ell^{(2m)}(x) + \psi_\ell(x)) \varphi(x) dx + \sum_{k=1}^m (-1)^{k+1} \psi_\ell^{(m+k-1)}(x) \varphi^{(m-k)}(x) \Big|_0^1. \quad (9)$$

Dastlab m -toq bo'lgan holat uchun ekstremal funksiyani topamiz. Buning uchun berilgan chegaraviy shartlarda bir jinsli bo'lmagan oddiy differensial tenglamani yechamiz:

$$\psi_\ell^{(2m)}(x) - \psi_\ell(x) = -\ell(x), \quad (10)$$

$$\psi_\ell^{(m+k-1)}(x) \Big|_{x=0}^{x=1} = 0, \quad k = \overline{1, m}. \quad (11)$$

Quyidagi o'rinli.

1-teorema. Ushbu $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida (10)-differensial tenglamaga qo'yilgan (11)-chegaraviy shartlardagi yechimi

$$\psi_\ell(x) = -\ell(x) * G_m(x), \quad (12)$$

(1)-kvadratur formulaning ekstremal funksiyasi bo'ladi. Bu yerda

$$G_m(x) = \frac{\text{sign}(x)}{2m} \cdot \left[\text{sh}(x) + \sum_{k=1}^{m-1} e^{x \cos \frac{\pi k}{m}} \cdot \cos \left(x \cdot \sin \frac{\pi k}{m} + \frac{\pi k}{m} \right) \right]. \quad (13)$$

Endi, m -juft bo'lgan holat uchun ekstremal funksiyani topamiz. Buning uchun berilgan chegaraviy shartlarda bir jinsli bo'lmagan oddiy differensial tenglamani yechamiz. Ya'ni,

$$\psi_\ell^{(2m)}(x) + \psi_\ell(x) = \ell(x), \quad (14)$$

$$\psi_\ell^{(m+k-1)}(x) \Big|_{x=0}^{x=1} = 0, \quad k = \overline{1, m}. \quad (15)$$

Quyidagi o'rinli.

2-teorema. Ushbu $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida (14)-differensial tenglamaga qo'yilgan (15)-chegaraviy shartlardagi yechimi (m -juft)

$$\psi_\ell(x) = \ell(x) * G_m(x) \quad (16)$$

(1)-kvadratur formulaning ekstremal funksiyasi deyiladi.

Bu yerda $G_m(x)$ funksiya $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}} + 1$ differensial operatorning fundamental yechimi.

Ya'ni,

$$G_m(x) = -\frac{\text{sign}(x)}{2m} \sum_{k=1}^m e^{x \cos \frac{(2k-1)\pi}{2m}} \cos \left(x \sin \frac{(2k-1)\pi}{2m} + \frac{(2k-1)\pi}{2m} \right). \quad (17)$$

Endi biz ixtiyoriy m uchun xatolik funksionali normasini ko'rinishini topamiz. Quyidagi teorema o'rinli.

3-teorema. Ushbu $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida (5)-xatolik funksionalining normasining kvadrati quyidagi ko'rinishda

$$\|\ell\|_{L_2^{(m,0)*}}^2 = (-1)^m \left(\int_0^1 \int_0^1 G_m(x-y) dx dy - 2 \sum_{\beta=0}^N C[\beta] \int_0^1 G_m(x-h\beta) dx + \right.$$

$$+ \sum_{\beta=0}^N \sum_{\gamma=0}^N C[\beta] C[\gamma] G_m(h\beta - h\gamma) \Big),$$

bo'ladi.

Bu yerda $G_m(x)$ funksiya m -toq bo'lgan holatda (13)-formuladan va m -juft bo'lganda esa (17)-formuladan foydalanib hisoblanadi.

Xatolik funksionalining normasi koeffitsiyentlarga bog'liq bo'lgani uchun biz xatolik funksionalining normasining kvadratini $\Psi(C[0], C[1], \dots, C[N])$ bilan belgilab olamiz va u quyidagi ko'rinishda bo'ladi,

$$\Psi(C[0], C[1], \dots, C[N]) = (-1)^m \cdot \left(\int_0^1 \int_0^1 G_m(x-y) dx dy - \right. \\ \left. - 2 \sum_{\beta=0}^N C[\beta] \int_0^1 G_m(x-h\beta) dx + \sum_{\beta=0}^N \sum_{\gamma=0}^N C[\beta] C[\gamma] G_m(h\beta - h\gamma) \right).$$

Endi xususiy hosilalarni olib nolga tenglashtirib quyidagi tenglamalar sistemasiga kelamiz.

$$\sum_{\gamma=0}^N C[\beta] G_m(h\beta - h\gamma) = \int_0^1 G_m(x - h\beta) dx, \quad \beta = \overline{0, N}. \quad (18)$$

Yuqoridagi (18)-tenglamalar sistemasida $N+1$ ta noma'lum va $N+1$ ta tenglamalar mavjud. Ushbu tenglamalar $C[\beta]$ koeffitsiyentlarining optimal qiymatini aniqlashga imkon beradi. Ushbu tenglamalar sistemasini yechish uchun biz Sobolev metodidan foydalanamiz. Buning uchun bizga $(2m)$ -tartibli differensial operatorning diskret analogi kerak bo'ladi. Keyingi bobda biz ushbu diskret operatorni qurish bilan shug'ullanamiz.

Dissertatsiyaning "**Yuqori tartibli differensial operatorning diskret analogi**" deb nomlangan ikkinchi bobi uchta paragrafdan iborat bo'lib birinchi paragrafida umumlashgan funksiyalar va Furye almashtirishlari va umumlashgan funksiyaning hosilalari kabi ma'lum ta'riflar keltirilgan. Ikkinchi paragrafida esa biz ushbu

$$D_m[\beta] * G_m[\beta] = \delta[\beta] \quad (19)$$

tenglikni qanoatlantiruvchi $D_m[\beta]$ diskret operatorni qurish bilan shug'ullanamiz. Bu yerda $\delta[\beta]$ - diskret delta funksiya, $G_m[\beta]$ - funksiya $G_m(x)$ funksiyaning diskret ko'rinishi. m -toq bo'lgan holatda $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}} - 1$ differensial operatorning diskret analogi kerak bo'ladi. Ya'ni,

4-teorema. Ushbu $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}} - 1$ differensial operatorning (19)-tenglikni qanoatlantiruvchi diskret analogi quyidagi ko'rinishda:

$$D_m[\beta] = \frac{m}{K_t} \cdot \begin{cases} \sum_{n=1}^{m-1} A_{t,n} \cdot \tau_n^{|\beta|-1}, & |\beta| \geq 2, \\ 1 + \sum_{n=1}^{m-1} A_{t,n}, & |\beta| = 1, \\ M_{t,1} - \frac{K_{t,1}}{K_t} + \sum_{n=1}^{m-1} \frac{A_{t,n}}{\tau_n}, & \beta = 0, \end{cases}$$

bu yerda $K_t, K_{t,1}, M_{t,1}, A_k, \tau_k$ - ma'lum kattaliklar va $|\tau_k| < 1$.

m -juft bo'lgan holda esa $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}} + 1$ differensial operatorning $D_m[\beta]$ diskret analogini quramiz. Differensial operatorning diskret analogini qurishdan avval ushbu yig'indini hisoblab olamiz

$$S = \sum_{\beta=-\infty}^{+\infty} \frac{1}{\left(\beta - h\left(p + \frac{s_1 i}{2\pi}\right)\right) \left(\beta - h\left(p + \frac{s_2 i}{2\pi}\right)\right) \dots \left(\beta - h\left(p + \frac{s_{2m} i}{2\pi}\right)\right)}. \quad (20)$$

Bu yerda $s_k = \cos \frac{(2k-1)\pi}{2m} + i \sin \frac{(2k-1)\pi}{2m}$, $k = 1, 2, \dots, 2m$, (20)-yig'indini hisoblashda biz o'zimizga qulaylik uchun lemma kiritib olamiz.

1-lemma. Ushbu (20)- belgilashdagi cheksiz qatorning yig'indisi quyidagi chekli yig'indiga teng

$$S = -\frac{h\lambda}{m} \cdot \left(-\frac{2\pi i}{h}\right)^{2m} \cdot \sum_{k=1}^{m/2} \frac{a_{1,k}\lambda^2 + a_{2,k}\lambda + a_{1,k}}{\lambda^4 + b_{1,k}\lambda^3 + b_{2,k}\lambda^2 + 1}, \quad (21)$$

bu yerda $a_{1,k}, a_{2,k}, b_{1,k}, b_{2,k}, \lambda$ - ma'lum kattaliklar.

5-teorema. Ushbu $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}} + 1$ (m -juft) differensial operatorning (19)-tenglikni qanoatlantiruvchi $D_m[\beta]$ diskret analogi quyidagi ko'rinishda

$$D_m[\beta] = -\frac{m}{K_j} \cdot \begin{cases} M_{j,1} - K_{j,1} + \sum_{k=1}^{m-1} \frac{A_{j,k}}{\lambda_k}, & \beta = 0, \\ 1 + \sum_{k=1}^{m-1} A_{j,k}, & |\beta| = 1, \\ \sum_{k=1}^{m-1} A_{j,k} \cdot \lambda_k^{|\beta|-1}, & |\beta| \geq 2, \end{cases} \quad (22)$$

bu yerda $K_j, K_{j,1}, M_{j,1}, A_{j,k}, \lambda_k$ - ma'lum kattaliklar va $|\lambda_k| < 1$.

Uchinchi paragrafida esa $\frac{d^2}{dx^2} - 1$, $\frac{d^4}{dx^4} + 1$ va $\frac{d^6}{dx^6} - 1$ differensial operatorlarning diskret analoglarining barcha xossalari isbotlangan. Ya'ni,

1-natija. Ushbu $\frac{d^2}{dx^2}-1$ differensial operatorning $D_1[\beta]$ diskret analogi quyidagi tengliklarni qanoatlantiradi:

$$1. D_1[\beta] * e^{[\beta]} = 0, \quad 2. D_1[\beta] * e^{-[\beta]} = 0.$$

Keyinchalik biz $m=2$ bo'lgan holat uchun $\frac{d^4}{dx^4}+1$ differensial operatorning $D_2[\beta]$ diskret analogi uchun muhim bo'lgan natijalarni keltiramiz.

2-natija Ushbu $\frac{d^4}{dx^4}+1$ differensial operatorning $D_2[\beta]$ diskret analogi quyidagi tengliklarni qanoatlantiradi

$$1. D_2[\beta] * \left(e^{\frac{\sqrt{2}[\beta]}{2}} \cos\left(\frac{\sqrt{2}}{2}[\beta]\right) \right) = 0, \quad 2. D_2[\beta] * \left(e^{\frac{\sqrt{2}[\beta]}{2}} \sin\left(\frac{\sqrt{2}}{2}[\beta]\right) \right) = 0,$$

$$3. D_2[\beta] * \left(e^{-\frac{\sqrt{2}[\beta]}{2}} \cos\left(\frac{\sqrt{2}}{2}[\beta]\right) \right) = 0, \quad 4. D_2[\beta] * \left(e^{-\frac{\sqrt{2}[\beta]}{2}} \sin\left(\frac{\sqrt{2}}{2}[\beta]\right) \right) = 0.$$

Endi esa biz $\frac{d^6}{dx^6}-1$ differensial operatorning $D_3[\beta]$ diskret analogi uchun quyidagi natijalarni olamiz.

3-natija. Ushbu $\frac{d^6}{dx^6}-1$ Differensial operatorning $D_3[\beta]$ diskret analogi quyidagi tengliklarni qanoatlantiradi

$$1. D_3[\beta] * e^{[\beta]} = 0, \quad 4. D_3[\beta] * e^{\frac{[\beta]}{2}} \cdot \sin\left(\frac{\sqrt{3}}{2}[\beta]\right) = 0,$$

$$2. D_3[\beta] * e^{-[\beta]} = 0, \quad 5. D_3[\beta] * e^{\frac{[\beta]}{2}} \cdot \cos\left(\frac{\sqrt{3}}{2}[\beta]\right) = 0,$$

$$3. D_3[\beta] * e^{\frac{[\beta]}{2}} \cdot \cos\left(\frac{\sqrt{3}}{2}[\beta]\right) = 0, \quad 6. D_3[\beta] * e^{\frac{[\beta]}{2}} \cdot \sin\left(\frac{\sqrt{3}}{2}[\beta]\right) = 0.$$

Dissertatsiyaning “**Normaga shartsiz minimum beruvchi optimal koeffitsiyentlar**” deb nomlangan uchinchi bobi to'rtta paragrafdan iborat bo'lib birinchi paragrafida $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida ixtiyoriy m uchun (1)-kvadratur formulaning optimal koeffitsiyentlarini topish uchun algoritmi berilgan. Ikkinchi paragrafida esa xususiy holatda $m=1$ va $m=2$ bo'lgan holatlari uchun optimal koeffitsiyentlarni ko'rinishi topilgan. Ya'ni,

6-teorema. Ushbu $L_2^{(1,0)}(0,1)$ fazoda (1)-kvadratur formulaning optimal koeffitsiyentlari

$$C[\beta] = \begin{cases} \frac{e^h - 1}{e^h + 1}, & \beta = 0, \\ \frac{2(e^h - 1)}{e^h + 1}, & 1 \leq \beta \leq N - 1, \\ \frac{e^h - 1}{e^h + 1}, & \beta = N, \end{cases}$$

ko‘rinishda bo‘ladi.

7-teorema. Ushbu $L_2^{(2,0)}(0,1)$ fazoda (1)-kvadratur formulaning optimal koeffitsiyentlari

$$C[\beta] = \begin{cases} a + Y_1 + m_1 + n_1 \lambda_1^N, & \beta = 0, \\ a + m_1 \lambda_1^\beta + n_1 \lambda_1^{N-\beta}, & 1 \leq \beta \leq N - 1, \\ a + Y_2 + m_1 \lambda_1^N + n_1, & \beta = N, \end{cases}$$

ko‘rinishda bo‘ladi. Bu yerda a, Y_1, Y_2, m_1, n_1 -lar ma’lum kattaliklar va $|\lambda_1| < 1$.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafida $L_2^{(1,0)}(0,1)$ va $L_2^{(2,0)}(0,1)$ fazolarda qurilgan kvadratur formulaning xatolik funksionalining normasi hisoblangan. Ya’ni,

8-teorema. Ushbu $L_2^{(1,0)}(0,1)$ fazodagi (1)-ko‘rinishdagi kvadratur formulaning xatolik funksionali normasining kvadrati quyidagiga teng

$$\|\ell\|_{L_2^{(1,0)*}}^2 = 1 - \frac{2(e^h - 1)}{h(e^h + 1)}.$$

Endi biz $L_2^{(2,0)*}(0,1)$ fazoga tegishli bo‘lgan $\|\ell\|_{L_2^{(2,0)*}}^2$ ni hisoblaymiz.

9-teorema. Ushbu $L_2^{(2,0)}(0,1)$ fazodagi (1)-ko‘rinishdagi kvadratur formulaning xatolik funksionali normasining kvadrati quyidagiga teng

$$\|\ell\|_{L_2^{(2,0)*}}^2 = 1 - \frac{\sqrt{2}}{2} \cdot \left(\sin \frac{\sqrt{2}}{2} \cdot \operatorname{ch} \frac{\sqrt{2}}{2} + \cos \frac{\sqrt{2}}{2} \cdot \operatorname{sh} \frac{\sqrt{2}}{2} \right) - \\ - C[0] - C[N] - \frac{\sqrt{2}}{K} (N - 1)a - Q_1 - Q_2.$$

bu yerda a, Q_1, Q_2, K -lar ma’lum kattaliklar.

Uchinchi bobning to‘rtinchi paragrafida $L_2^{(1,0)}(0,1)$ va $L_2^{(2,0)}(0,1)$ fazolarda qurilgan optimal kvadratur formulalar bilan mos ravishda umumlashgan trapesiya va $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazosida qurilgan optimal kvadratur formula xatoliklari bir nechta funksiyalarda tekshirilib jadval ko‘rinishida keltirilgan.

Sobolev fazosida qurilgan optimal kvadratur formula va umumlashgan trapetsiya formulalarining absloyut xatolik qiymatlari solishtirilgan, buning uchun

$\varphi_1(x) = \frac{1}{x+1}$, $\varphi_2(x) = e^x \sin(x)$ va $\varphi_3(x) = \cos(e^x)$ funksiyalar olingan. 1-jadvalda optimal kvadratur formulaning absolyut xatoligi R_k $\left(R_k = \left| \int_0^1 \varphi(x) dx - \sum_{\beta=0}^N C[\beta] \varphi(h\beta) \right| \right)$ va umumlashgan trapetsiya formulasining absolyut xatoligi R_t $\left(R_t = \left| \int_0^1 \varphi(x) dx - \frac{1}{N} \left(\varphi(0) + \varphi(1) + 2 \sum_{i=1}^{N-1} \varphi(hi) \right) \right| \right)$ bilan belgilangan

β	$\varphi_1(x)$		$\varphi_2(x)$		$\varphi_3(x)$	
N	R_k	R_t	R_k	R_t	R_k	R_t
10	$4.67 \cdot 10^{-5}$	$6.24 \cdot 10^{-4}$	$1.54 \cdot 10^{-3}$	$2.30 \cdot 10^{-3}$	$1.30 \cdot 10^{-4}$	$2.33 \cdot 10^{-4}$
100	$4.74 \cdot 10^{-7}$	$6.25 \cdot 10^{-6}$	$1.54 \cdot 10^{-5}$	$2.30 \cdot 10^{-5}$	$1.26 \cdot 10^{-6}$	$2.29 \cdot 10^{-6}$
1000	$4.70 \cdot 10^{-9}$	$6.25 \cdot 10^{-8}$	$1.54 \cdot 10^{-7}$	$2.30 \cdot 10^{-7}$	$1.26 \cdot 10^{-8}$	$2.30 \cdot 10^{-8}$

1-jadval

Yuqoridagi 1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki optimal kvadratur formulaning absolyut xatoligi umumlashgan trapetsiya formulasining absolyut xatoligidan yaxshiroq natija berdi. Endi yaqinlashish tartibini ko‘rishimiz uchun $\|\ell\|_{L_2^{(1,0)*}}^2$ ni h bo‘yicha Teylor qatoriga yoyamiz va

$$\|\ell\|_{L_2^{(1,0)*}}^2 = \frac{1}{12} h^2 - \frac{1}{120} h^4 + O(h^5)$$

bundan ko‘rinadiki biz qurgan kvadratur formulamizning $m=1$ holi uchun yaqinlashish tartibi $O(h)$ ga teng ekan.

Endi esa $L_2^{(2,0)}(0,1)$ Sobolev fazosida qurilgan optimal kvadratur formula va $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazosida qurilgan optimal kvadratur formulalarining xatolik qiymatlarini ba‘zi funksiyalarda solishtiramiz. Biz ushbu

$$f_1(x) = \cos\left(\frac{\sqrt{2}}{2}x\right) \sinh\left(\frac{\sqrt{2}}{2}x\right) - \sin\left(\frac{\sqrt{2}}{2}x\right) \cosh\left(\frac{\sqrt{2}}{2}x\right),$$

$$f_2(x) = e^{\frac{\sqrt{2}}{2}x} \sin\left(\frac{\sqrt{2}}{2}x\right),$$

$$f_3(x) = \sin\left(\frac{\sqrt{2}}{2}x\right)$$

funksiyalarda yuqoridagi fazolarda qurilgan kvadratur formulalarni xatoliklarini 2-jadvalda tugun nuqtalar soni 10, 100 va 1000 bo‘lgan holatida keltiramiz. Ushbu

2-jadvalda R_L va R_W xatoliklar mos ravishda $L_2^{(2,0)}(0,1)$ va $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazolaridagi optimal kvadratur formulalarining absolyut xatoligi.

β	$f_1(x)$		$f_2(x)$		$f_3(x)$	
	R_L	R_W	R_L	R_W	R_L	R_W
10	$3.13 \cdot 10^{-45}$	$7.07 \cdot 10^{-4}$	$3.11 \cdot 10^{-4}$	$1.98 \cdot 10^{-3}$	$2.53 \cdot 10^{-4}$	$3.60 \cdot 10^{-4}$
100	$2.01 \cdot 10^{-41}$	$7.76 \cdot 10^{-6}$	$2.57 \cdot 10^{-7}$	$2.17 \cdot 10^{-5}$	$2.08 \cdot 10^{-7}$	$3.96 \cdot 10^{-6}$
1000	$2.58 \cdot 10^{-38}$	$7.83 \cdot 10^{-8}$	$2.53 \cdot 10^{-10}$	$2.19 \cdot 10^{-7}$	$2.05 \cdot 10^{-10}$	$4 \cdot 10^{-8}$

2-jadval

Yuqoridagi 2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki $L_2^{(2,0)}(0,1)$ fazoda qurilgan optimal kvadratur formulaning absolyut xatoligi $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazoda qurilgan optimal kvadratur formulaning absolyut xatolidan yaxshiroq natija berdi.

XULOSA

Dissertatsiya ishi yuqori tartibli differensial operatorlarning fundamental yechimiga aniq bo‘lgan taqribiy integrallashning optimal algoritmlariga bag‘ishlangan.

Tadqiqot ishining asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. $L_2^{(m,0)}(0,1)$ gilbert fazosida kvadratur formulalarning ekstremal funksiyasi topilgan.

2. $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida kvadratur formulalarning xatolik funksionali normasining ko‘rinishi olingan.

3. $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida optimal kvadratur formulaning koeffitsiyentlari uchun Vinner-Xopf tipidagi tenglamalar sistemasini olingan.

4. $\left(\frac{d^{2m}}{dx^{2m}} + 1\right)$ differensial operatorning $D_m[\beta]$ diskret analogi qurilgan va barcha xossalari isbotlangan.

5. $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida optimal kvadratur formulalar koeffitsiyentlari uchun ixtiyoriy m da algoritmi berilgan.

6. $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida $m=1$ va $m=2$ bo‘lgan hollarda optimal kvadratur formulaning xatolik funksionali normasi hisoblangan.

7. $L_2^{(m,0)}(0,1)$ fazosida optimal kvadratur formula xatoligining yuqori chegarasi topilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.01.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

**ИНСТИТУТ МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И.РОМАНОВСКОГО,
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ДАВРОНОВ ЖАВЛОН РУСТАМ УГЛИ

**ОПТИМАЛЬНЫЕ АЛГОРИТМЫ ПРИБЛИЖЕННОГО
ИНТЕГРИРОВАНИЯ ТОЧНЫХ НА ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ
РЕШЕНИЙ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО ОПЕРАТОРА ВЫСОКОГО
ПОРЯДКА**

**01.01.03 – Вычислительная и дискретная математика
(физико-математические науки)**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по
ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2025.1.PhD/FM1232.

Диссертация выполнена в институте математики имени В.И.Романовского АНРУз и в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (<http://ik-fizmat.nuu.uz/>) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz)

Научный руководитель:	Шадиметов Холматвай Махкамбаевич доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Хаётов Абдулло Рахмонович доктор физико-математических наук, профессор Худойберганаов Мирзоали Уразалиевич доктор физико-математических наук, профессор
Ведущая организация:	Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2025 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871)227-12-24, факс: (+99871) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за № _____). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 года.
(протокол рассылки № _____ от « ____ » _____ 2025 года).

М.М. Арипов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н., профессор

З.Р. Рахмонов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н., профессор

Р.Д. Алоев

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученой степени доктора наук, д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Современные научные исследования, проводимых в мировом уровне, все чаще основываются на сложных математических моделях и численных методах расчетов. В частности, такие процессы, как моделирование геофизических явлений, анализ процессов с использованием оптических приборов, моделирование электрических, магнитных или тепловых полей, определение распределения световых волн и составление экономических прогнозов, опираются на математико-физических уравнений. Обычно, ввиду трудности нахождения точного решения таких уравнений, для их приближенного решения сводятся к построению квадратурных формул. В связи с этим актуальным является исследование оптимальных алгоритмов приближенного интегрирования, точных к фундаментальному решению дифференциальных операторов высших порядков, построение оптимальных квадратурных формул в гильбертовом пространстве, оценка их погрешностей и определение порядка аппроксимации.

В мировой практике ведутся научные исследования в области математического моделирования и численных вычислений, направленные на построение высокоточных квадратурных формул и изучение их свойств. В связи с этим построенные оптимальные квадратурные формулы широко используются при численно-аналитическом решении уравнений в частных производных с граничными условиями, интегральных уравнений, приближенном вычислении определенных интегралов и в таких важных вопросах, как аппроксимация функций в различных функциональных пространствах. Поэтому особое внимание уделяется построению точных оптимальных квадратурных формул для фундаментальных решений дифференциальных операторов высших порядков, оценке их погрешностей и определению порядка аппроксимации.

В нашей республике проводятся комплексные мероприятия по изучению теоретических основ фундаментальных наук и их применению в жизненно важных областях, и достигаются определённые результаты. В частности, одним из важнейших направлений сегодня является разработка численно-аналитических методов решения, используемых при моделировании промышленных процессов и анализе геофизических явлений. Растет потребность в современных оптимальных формулах для эффективного решения таких задач, опирающихся на интегральные и дифференциальные уравнения. В частности, как одно из важнейших направлений вычислительной математики, достигнут ряд важных научных результатов в построении оптимальных квадратурных формул в различных функциональных пространствах и оценке их точности. Поставлены важные задачи в таких приоритетных областях, как «функциональный анализ, дифференциальные уравнения, математическая физика, математическое моделирование, вычислительная математика и дискретная математика, теория вероятностей и

математическая статистика»². В реализации этих задач важное значение имеет построить оптимальную квадратурную формулу точных на фундаментальных решениях дифференциального оператора высшего порядка, и оценить их погрешности.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит решению задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан УП-№ 4947 от 07 февраля 2017 года “О стратегии действия по дальнейшему развитию Республики Узбекистан”, УП-№60 от 28 января 2022 года “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, в постановлениях ПП-№ 2789 от 17 февраля 2017 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности”, ПП – № 2909 от 20 апреля 2017 года “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования”, ПП –№ 3682 от 27 апреля 2018 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы практического внедрения инновационных идей, технологий и проектов”, ПП – № 4708 от 07 мая 2020 года “О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики”, а также в других нормативно–правовых актах, относящихся к данной области деятельности.

